

## YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA

### HUQUQIY XULOSA №

1. Loyihaning turi  
Nishon tuman Hokimligi obodonlashtirish boshqarmasining xo'jalik munosabatlariga oid yo'llami ta'mirlash Pudrat shartnomasi loyihasi yuzasidan quydagilami,

### ANIQLADIM:

2. Loyihaning nomi  
Keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladigan Nishon tuman Hokimligi obodonlashtirish boshqarmasi nomidan Nizom asosida ish ko'ruvchi korxonada direktori Sh.Tursunov bir tomondan va keyingi o'rinlarda "Pudratchi" deb yuritiladigan Yangi Hayot Sifat qurilish MCHJ nomidan Nizom asosida ish ko'ruvchi korxonada direktori U.Axmedov ikkinchi tomondan Nishon tumanidagi Ko'ksoy MFY Zarafshon va Yangiobod kochalati 1.080 km kismini joriy ta'mirlash (smeta xujjatlarida kuzda tutilgan ishlar xajmi miqdorida) doir mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar:

"Pudratchi" deb yuritiladigan Yangi Hayot Sifat qurilish MCHJ nomidan Nizom asosida ish ko'ruvchi korxonada direktori U.Axmedov ikkinchi tomondan Nishon tumanidagi Ko'ksoy MFY Zarafshon va Yangiobod kochalati 1.080 km kismini joriy ta'mirlash (smeta xujjatlarida kuzda tutilgan ishlar xajmi miqdorida) loyiha-smeta xujjatlari asosida joriy ta'mirlash bo'yicha ta'mirlash ishlarini bajarish majburiyatini oladi, "Buyurtmachi" esa "Pudratchi" ga ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, bajarilgan ishlarni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini olish to'g'risida rasmiylashtirilgan mazkur loyiha amaldagi qonunchilik normalariga muvofiq ko'rinadi.

Ushbu shartnomaning umumiy summasi 87 777 433 sumni tashkil etadi

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot  
Nishon tuman Hokimligi obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 01.07.2022-yilda yuridik xizmat ko'rsatish markaziga taqdim etilgan.

Yuqorida qayd etilganlarga asosan,

### XULOSA QILDIM:

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

Markaz boshlig'i



B.Maxmatqulov  
01.07.2022 yil

## Ob'ektni joriy ta'mirlash va foydalanishga topshirish haqida

### PUDRAT SHARTNOMASI

«OB» № 44016 2022 yil

№ 10

Nishon tumani

«Buyurtmachi» Nishon tuman xokimligi obodonlashtirish boshqarmasi nomidan Nizom asosida faoliyat kursatib kelayotgan boshliq **Sh.X.Tursunov** bir tomondan va keyingi o'rinlarda «Pudratchi» deb yuritiladigan Nishon tumanida faoliyat ko'rsatib kelayotgan «**Yangi Hayot Sifat qurilish**» MCHJ nomidan Nizom asosida faoliyat ko'rsatuvchi rahbari **U.Axmedov** ikkinchi tomonidan «**Nishon tumanidagi kuksoy MFY Zarafshon va Yangiobod 1.080 km kuchalarini joriy tamirllash**» joriy ta'mirlash bo'yicha mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

#### Ta'rif

1. Mazkur shartnoma (kontrakt)da qo'llaniladigan tushunchalar quyidagicha:

«**Shartnoma (kontrakt)**»: - Kelgusi o'rinlarda shartnoma (kontrakt) deb yuritiladigan: Buyurtmachi va Pudratchi imzo chekadigan barcha kafolatlar, ilovalar, joriy ta'mirlash jarayonida tomonlar imzo chekishlari mumkin bo'lgan qo'shimchalar va o'zgartirishlar aks ettirilgan mazkur xujjat.

«**Muvakkat inshootlar**»: Pudratchi tomonidan joriy ta'mirlash maydonida o'rnatiladigan va joriy ta'mirlashni boshlash xamda yakunlash uchun zarur bo'lgan xamma turdagi vaqtinchalik inshootlar.

«**joriy ta'mirlash maydoni**»: Mazkur shartnoma doirasida Buyurtmachi tomonidan dalolatnoma asosida Pudratchiga berilgan yer uchastkasi. Ob'ektning joriy ta'mirlash maydoni chegarasini o'rash yoki bosh rejaga asosan o'rnatiladigan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi.

«**Ishlar**»: - Pudratchi tomonidan mazkur shartnoma (kontrakt) shartlariga muvofiq bajarilishi lozim bo'lgan ishlar. Joriy ta'mirlash, montaj va sozlash, ishga tushirish, kamchiliklarni bartaraf etishlar shunga kiradi.

«**Yashirin ishlar**»: - keyingi ishlar va konstruksiyalar bilan yashirib ketiladigan ishlar. Bu ishlarning sifati va aniqligini keyingi ishlar bajarib bo'lingandan keyin aniqlab bo'lmaydi.

«**Ijro xujjatlari**»: - ob'ekt joriy ta'mirlash uchun ishchi chizmalari komplekti, bajarilgan asli ishlarning shu chizmalarga muvofiq kelishi yoki ishlar bajarilishi uchun ma'sul bo'lgan shaxs tomonidan ularga kiritilgan uzgartishlar xaqidagi yozuvlar; ishlarni bajarishda qo'llaniladigan materiallar. Konstruksiyalar va detallarning sifati tasdiqlovchi sertifikatlar, texnik pasportlar va boshqa xujjatlar; yashirin ishlar guvoxligi xaqida xamda aloxida ma'suliyatli konstruksiyalarni oraliqda qabul qilish xaqidagi dalolatnomalar; montaj kilingan jixozlarning yakka tartibda sinab kurilgani xaqidagi guvoxnomalari; ish yuritish jurnallari xamda qurilish me'yori va qoidalarida ko'zda tutilgan boshqa xujjatlar.

«**Ma'qullash**»: - Buyurtmachi va Pudratchi tomonidan yozma ravishdagi tasdiqlash.

**Kontrakt narxini bo'lish**: Shartnoma bo'yicha ob'ektni umumiy qiymatini etaplariga bo'lish xar bir bosqichning qiymatini aniqlash belgilanishi.

#### Shartnoma mazmuni

2. Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga ko'ra «**Nishon tumanidagi kuksoy MFY Zarafshon va Yangiobod 1.080 km kuchalarini joriy tamirllash**» loyixa-smeta hujjatlarida ko'zda tutilgan ob'ektni joriy ta'mirlash va foydalanishga topshirish bo'yicha ishlarini bajarish majburiyatini oladi.

#### Shartnoma bo'yicha ishlarning qiymati.

3. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan bajariladigan ishlar narxi loyixa-smeta hujjatlarida belgilangan **87 777 433 (Sakson etti million etti yuz etmish etti ming turt yz uttiz uch)** so'mni tashkil etadi.

3.1. joriy ta'mirlash narxi va muddati mazkur shartnoma shartlariga asosan uzil-kesil xisoblanadi va qayta ko'rib chiqilmaydi, quyidagi xolatlardan tashqari:

-Ishlar hajmi buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda.

-Ob'ektlar qurilishi 1 (bir) yildan ortiq bo'lganda.

3.2. joriy ta'mirlash muddati bir yildan ortiq bo'lganda inshoot qiymati ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtiruvchi qonun xujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

3.3. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgartirishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

#### Pudratchining huquq va majburiyatlari:

4. Mazkur shartnoma bo'yicha joriy ta'mirlash ishlarni bajarish uchun, Pudratchi shartnomada ko'rsatilgan narx xisobida quyidagi ishlarni bajaradi:

4.1. Barcha ishlarni mazkur shartnomada xamda unga qilingan ilovaga muvofiq ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda o'zining kuchlari va yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish xamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish;

4.2. Joriy ta'mirlash maydoniga ilovaga asosan bajarilishi lozim bo'lgan joriy ta'mirlash ishlariga zarur bo'lgan qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, asbob uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikalarini yetkazib berish ularni kabul kilish, tushirish, omborda saqlash.

4.3. O'z kuchlari va vositalari bilan qurilish maydoni xududida materiallarni saqlash va mazkur shartnoma bo'yicha ishlarni ado etish uchun zarur bo'lgan barcha muvaqqat inshootlarni barpo etadi.

4.4. Buyurtmachini pudrat shartnomalari tuzilishi davomida subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi manzili to'g'risida xabardor qilish.

4.5. Uning yordamchi pudratchilari tomonidan mazkur shartnoma (kontrakt) bo'yicha tegishli ishlarning bajarilishi uchun buyurtmachi oldida javobgardir.

4.6. Ishlarni bajarish chog'ida texnika xavfsizligini ta'minlaydi, atrof muxitni, kukalamzorlar va yerlarni muxofaza etish bo'yicha qurilish maydonida zarur bo'lgan tadbirlar bajarilishini ta'minlaydi, xamda yoritgichlar o'rnatadi.

4.7. joriy ta'mirlash tavakkalchiligi sugurtasini amalga oshiradi.

4.8. joriy ta'mirlash tugallangan ob'ektni qabul qilish xaqidagi dalolatnomaga imzo chekilgandan keyin bir oy muddat ichida o'ziga tegishli bo'lgan qurilish mashinalari va jixozlari, transport vositalari, asbob-uskunalari, qurilish materiallari, buyumlari, konstruksiyalarini qurilish maydoni tashqarisiga chiqaradi, qurilgan muvakkat bino va inshootlarni buzib, tashib olib ketadi.

4.9. joriy ta'mirlash maydonining qo'riqlanishini amalga oshiradi. Joriy ta'mirlash maydoniga yetkazib berilgan. inshootga tegishli bo'lgan qurilish materiallari, uskunalarni, yaroqli xolatda saqlanishini, qo'riqlanishini to'liq, o'z xisobidan va imkoniyatdan chiqib ta'minlaydi. Xar bir yuqolgan, singan, yaroqsiz xolatga kelib qolgan maxsulotlar uchun javobgarligini o'z zimmasiga oladi.

4.10. Mazkur shartnomada barcha majburiyatlarni to'liq xajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

4.11. Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarni o'z kuchlari bilan subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi xamda ob'ektning foydalanishga tayyor xolda topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

#### **Buyurtmachining huquq va majburiyatlari:**

5. Pudratchidan mazkur shartnomada belgilangan muddatlarda binoni to'liq qurilishi va foydalanishga topshirishni talab qilish.

5.1. Bajarilgan ishlarni sifati va zamonaviy innovatsion g'oyalar asosida tugallashni talab qilish huquqlariga ega.

Mazkur shartnomani bajarish uchun buyurtmachi:

5.2. Barcha loyixa xujjatlarni ekspertiza ko'rigidan o'tkazib pudratchiga takdim qilish.

5.3. Ishlar bajarilishi ustidan doimiy qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;

5.4. Pudratchining barcha murojaatlarini o'n kun muddatda ko'rib chiqish va qaror qabul qilish;

5.5. Mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab 2 oy davomida Pudratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro xujjatlari ro'yxatini taqdim etadi;

#### **Ishlarni bajarish muddati:**

6.1. Ishlar mazkur shartnoma (kontrakt) bo'yicha, ishlarni olib borish «Kalendar» jadvali»ga muvofiq, boshlanishi, yakunlanishi va olib borilishi kerak.

6.2. Shartnomaning amal qilish muddati 2022 yil 31 dekabr etib belgilandi.

#### **To'lovlar va xisob-kitoblar.**

7.1. Joriy ta'mirlashni tashkil etish f2, f3, f5 asosida pudratchi tomonidan amalga oshiriladi.

#### **Ishlarni olib borish**

8. Buyurtmachi joriy ta'mirlash maydoniga o'z vakili – texnik nazoratchi tayinlaydi. U Buyurtmachi nomidan Pudratchi bilan birgalikda ishlarni xajmi va sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, bajarilgan ishlar dalolatnomasini rasmiylashtiradi shuningdek, Pudratchi foydalanayotgan material va asbob-uskunalarni shartnoma va loyixa xujjatlari shartlariga muvofiqligini tekshirib boradi. Texnik nazoratchi, qurilish ishlari olib borilayotgan inshootda, chorak yakuni bilan xech bir to'siqsiz mustaqil bajarilgan ishlar xajmini umumiy nazorat o'lchovidan o'tkazadi. Texnik nazorat o'tkazish o'lchovlarini bajarilish yuzasidan ma'sul va javobgar shaxs xisoblanadi.

8.1. Texnik nazoratchi ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'siqsiz tanishish xuquqiga egadir.

8.2. Pudratchi texnik nazoratchini ishlashi uchun joy bilan ta'minlaydi.

8.3. Texnik nazoratchi Pudratchi tomonidan qurilish maydonida bajariladigan ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarni xal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

8.4. Pudratchi ishlarni bajarish loyixasiga va mazkur shartnomaning 6 moddasida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasi va jadvaliga binoan ob'ektda ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

8.5. Pudratchi ob'ektda ishlarni olib borish tartibini davlat arxitektura-qurilish nazorati organlari bilan kelishadi va unga rioya etilishi uchun konun xujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

8.6. joriy ta'mirlash maydonida umumiy tartibni ta'minlash Pudratchining vazifasi xisoblanadi.

8.7. Buyurtmachi joriy ta'mirlash maydonini berish xaqidagi dalolatnoma bilan birga ortiqcha tuproq va qurilish chiqindilarini to'kish uchun va yetishmaydigan tuproq qazishga kar'er uchun joy ajratish xaqida xujjatlarni Pudratchiga topshiradi.

8.8. Buyurtmachi joriy ta'mirlash maydonini Pudratchiga topshirish xaqidagi dalolatnomaga imzo chekilgan sanadan e'tiboran 3 kun muddat ichida qurilish maydonini belgilash va ob'ektlarni bog'lash bo'yicha ishlarni bajarish uchun geodeziya nuqtalari, ularning koordinatlari va balandlik belgilarini Pudratchiga taqdim etadi.

8.9. Pudratchi ishlarni bajarish jadvaliga asosan qurilish uchun geodeziya o'lchash asosini yaratib beradi. Geodeziya o'lchash asosining tarkibi va xajmi qurilish bo'yicha me'yoriy xujjatlarga muvofiq kelishi kerak. U ob'ektni boshlang'ich nuqtalarga, chiziq'larga va darajalarga nisbatan to'g'riligi va lozim darajadaliigi uchun, balandlik o'lchamlari, satxlari joylashuvining to'g'riligi va reja uklarini va muvofiq'ligi uchun javobgardir. Agar ish bajarish jarayonida olib borilgan o'lchov va geodeziya ishlarida xatolik aniqlansa Pudratchi o'z xisobidan unga tegishli tuzatish kiritadi. Pudratchi joylashuv jadvalini, joylashuv kataloglarini va geodeziya o'lchash ishlarini o'lchash chog'ida o'rnatilgan geodeziya belgilari balandligini qurilish davrida o'zida saqlaydi va qurilish tugagandan so'ng ularni dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachiga topshiradi.

8.10. Joriy ta'mirlash maydonida ishlarni bajarish davri uchun qurilgan muvaqqat kommunikatsiya bog'lamlari va yangi qurilgan kommunikatsiyalarni nuqtalarga ulashni Pudratchi amalga oshiradi.

8.11. Pudratchi joriy ta'mirlash uchun qo'llaydigan qurilish materiallarini, jixozlari va butlovchi buyumlarni konstruktsiya va tizimlar sifatining loyixa xujjatida ko'rsatilgan xususiyatlarga, davlat andozasiga, texnik shartlarga mos kelishini va texnik pasportga, sertifikatga yoki ularning sifatiga guvohlik beruvchi boshqa xujjatlarga ega bo'lishni kafolatlaydi.

8.12. Pudratchi aloxida ma'suliyatli konstruktsiyalar va yashirin ishlarni ularning tayyorligiga qarab, qabul boshlanishidan ikki kun oldin Buyurtmachiga yozma ravishda xabar beradi.

Qabul kilinadigan konstruktsiya va ishlarning tayyorligi, ma'suliyatli konstruktsiyalarni oraliqda qabul qilish dalolatnomasiga va yashirin ishlar guvohligini beruvchi dalolatnomaga Buyurtmachi va Pudratchi tomonlaridan chekiladigan imzo bilan tasdiqlanadi.

Pudratchi keyingi ishlarni bajarishga faqatgina Buyurtmachining ishlarni ado etish jurnaliga kiritilgan yozma ruxsatnomasidan so'nggina kirishadi.

Agar yopik ishlar Buyurtmachining tasdig'isiz bajarilgan yoki u bu xaqda xabardor qilinmagan yoxud kechikib xabardor qilinsa, u xolda Pudratchi uning talabi bo'yicha o'z xisobidan Buyurtmachi ko'rsatmasiga binoan xoxlagan yashirin ishlarni ochish, so'ngra esa uni qayta tiklashga majburdir.

8.13. Agarda Buyurtmachi tomonidan ishlar sifatsiz bajarilgani aniqlansa, Pudratchi o'z kuchi bilan va qurilishning umumiy qiymatini kupaytirmasdan, belgilangan muddatda bu ishlarni tegishli sifatini ta'minlagan xolda qaytadan bajarishga majbur.

Agar Pudratchi qisqa (texnik imkoniyat) muddatda sifatsiz ishni tiklay olmasa, Buyurtmachi Pudratchi tomonidan sifatsiz bajarilgan ishni tegishli xaq to'lash evaziga tiklash uchun boshqa shaxslarni jalb etishga xaqli. Bu ishlarni boshqa shaxslar tomonidan tuzatish bilan bog'lik xarajatlar Pudratchining zimmasiga yuklanadi.

8.14. Pudratchi joriy ta'mirlash maydonini va unga tutashgan ko'cha va yo'lakalarni tozalash va ozodaligini ta'minlash, maydondan joriy ta'mirlash qurilish davrida Buyurtmachi ko'rsatgan joyga qurilish chiqindilarini chiqarib tashlash ishlarini amalga oshiradi.

8.15. Pudratchi ish boshlangan vaktidan boshlab to tugagunga qadar butun ishlarning borishi aks ettiriladigan ish yuritish jurnalini tutadi. Shuningdek unda Buyurtmachi va Pudratchining o'zaro munosabatlarida axamiyatli bo'lgan ishlarning borishi bilan bog'lik barcha faktlar va xolatlar o'z aksini topadi (ishning boshlanish sanasi, olib borilgan sinovlar, materiallarni vaqtida yetkazib bermaslik bilan bog'liq uzilishlar, qurilish texnikalarining safdan chiqishi, shuningdek qurilishni uzil-kesil tugatish muddatiga ta'sir ko'rsatuvchi nimaiki sodir bo'lsa, xammasi xaqida).

Agar Buyurtmachi ishlarni borishidan, sifatidan yoki Pudratchining yozuvlaridan qoniqmasa, u xolda o'z muloxazalarini ish yuritish jurnalida bayon etadi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

8.16. Pudratchining tashabbusi bilan shartnoma(bitim) bekor qilinsa yuqoridagi qaror talabidan kelib chichib, pudratchining joriy ta'mirlashga sarflangan xarajatlari to'lab berilmaydi, qurilish bitkazilmagan ob'ekt davlat mulkiga o'tkaziladi va qarorga muvofiq pudratchi takroran izlanadi.

#### **Mexnatni muxofaza etish.**

9. Pudratchi joriy ta'mirlash qurilish boshlanishidan to tugaguncha va Buyurtmachi tomonidan joriy ta'mirlash qurilishi yakunlangan ob'ekt qabul qilingunga kadar, devor bilan o'ralgan qurilish maydoni xududidagi materiallar, jixozlar, qurilish texnikalari va boshqa mulklarning tegishlicha muxofaza etilishini ta'minlaydi.

9.1. Ob'ekt qabul qilingandan keyin joriy ta'mirlash qurilgan binolar va inshootlar, shuningdek materiallar, jixozlar va boshqa mulklarning saqlanishi uchun javobgarlik Buyurtmachi zimmasiga tushadi.

Bartaraf etib bo'lmaydigan kuch ( fors – major ) xolatlari.

10.1. Agar tomonlar majburiyatlarining qisman yoki to'la ijro etilmay qolishi tabiiy xodisalar, xarbiy xarakatlar va boshqa bartaraf etib bo'lmaydigan boshqa kuchlar sababli sodir bo'lgan bo'lsa, xamda bu xolat mazkur shartnoma

(kontrakt) ijrosiga bevosita ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, tomonlar mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarining qisman yoki to'la ijro etilmay qolgani uchun javobgarlikdan ozod bo'ladilar.

Mazkur shartnoma (kontrakt) bo'yicha majburiyatlarning ijro muddati bartaraf etib bo'lmaydigan vaziyat, shuningdek shu vaziyat keltirib chiqargan oqibat xukm surgan vaqtga mos ravishda orqaga suriladi.

10.2. Agar bartaraf etib bo'lmaydigan kuch vaziyati yoki uning oqibatlari 1 oydan ortiq vaqtga cho'ziladigan bo'lsa, Pudratchi va Buyurtmachi joriy ta'mirlash qurilishni davom ettirish yoki noma'lum vaqtga to'xtatish (konservatsiya) uchun chora-tadbirlar ko'rishni muxokama etadilar va shuningdek aloxida xolatlar asosli bo'lsa, qo'shimcha shartnoma tuzilib inshootni qurilish muddati o'zgartiriladi.

Agar tomonlar ikki oy mobaynida bir to'xtamga kela olmasalar, tomonlarning xar qaysisi shartnomani bekor qilinishini talab qilishga xaqlidir.

#### **Joriy ta'mirlash kurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish.**

11.1. joriy ta'mirlash kurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish shartnomani imzolash sanasida amalda bo'lgan belgilangan tartibga muvofiq mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlar tomonlar tarafdan bajarilgandan keyin qabul komissiyasining inshootni foydala- nishga qabul qilinganligi to'g'risida bayoniga asosan amalga oshiriladi.

11.2. Ob'ekt «Buyurtmachi» tomonidan «Pudratchi»ning inshootni tayyorgarligi to'g'risidagi yozma bildirishnomasini olgandan boshlab 5 (besh) kun ichida qabul qilinadi.

11.3. Pudratchi qurilishi tugallangan ob'ekt qabul qilinishi boshlanishidan besh kun oldin Buyurtmachiga mazkur shartnoma (kontrakt) 5-moddasining 5.5. bandiga asosan Buyurtmachi belgilagan tarkibdagi ikki nusxa ijro xujjatlarini topshiradi. Pudratchi xujjatlar amalda bajarilgan ishlarga to'la mos ekanligini yozma ravishda Buyurtmachiga tasdiklaydi.

11.4. Buyurtmachi ob'ektni qabul qilgan vaqtdan boshlab ob'ekt buyurtmachining mulkiga aylanadi.

#### **Kafolatlar.**

12.1. Pudratchi quyidagilarni kafolatlaydi:

- mazkur shartnomada belgilangan barcha ishlarni to'la xajmda va belgilangan muddatda bajarishni;
- barcha ishlar sifatini loyixa xujjatlar va amaldagi me'yorlarga muvofiqiligini;
- ishlarni qabul qilish chog'ida va ob'ektni kafolatli ishlatish davrida aniqlangan kamchilik va nuksonlarni o'z vaqtida bartaraf etishni;

- ob'ektdan foydalanish chog'ida muxandislik tizimi va jixozlarining me'yorida ishlashini.

12.2. Loyixa xujjatlariga xamda qurilish me'yorlari, qoidalari va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish sifatini;

12.3. O'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruktsiya va tizimlar sifatini, ularning loyixa xujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatliyalarga, davlat standartlariga xamda texnik shartlarga muvofiqiligini;

12.4. Ob'ektdan foydalanilganda muxandislik tizimlari va uskunalarining foydalanish qoidalarga muvofiqiligini kafolatlaydi.

12.5. Ob'ekt va unga kiradigan muxandislik tizimlari, asbob-uskunalar, materiallardan foydalanish va ishlarning kafolatli muddati tomonlar qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagan kundan boshlab 12 oy etib belgilanadi.

12.6. Agar ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlanib, ular bartaraf etilgunga qadar foydalanishni davom ettirish imkonini bermaydigan nuqsonlar aniqlansa, u xolda kafolat muddati nuqsonlarni bartaraf etish davriga uzaytiriladi. Nuqsonlar Pudratchi tomonidan uning o'z xisobidan bartaraf etiladi.

- Mavjud nuqsonlar va ularni bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

12.7. Agar Pudratchi bajarilgan ishlardagi nuqsonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarining kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u xolda Buyurtmachi mazkur shartnomaning shartlarini buzgan hisoblanadi.

12.8. Agar Pudratchi topilgan nuqson va kamchiliklarga dalolatnoma tuzilishidan yoki unga imzo chekishdan bosh tortsa, Buyurtmachi ularni tasdiqlatish uchun kamchilik va nuqsonlar, xamda ularning tavsifi bo'yicha tegishli dalolatnoma tuzadigan malakali ekspertlarni tayinlaydi. Ammo bular tomonlarning shu masala yuzasidan iqtisodiy sudiga murojaat qilish xuquqlarini istisno etmaydi.

#### **Litsenziyalar (sertifikatlar).**

13.1. Pudratchiga o'zlari yetkazib beradigan xajmda ishlarni bajarish va ob'ektni ishlatish uchun zarur bo'lgan materiallar, jixozlar, butlovchi buyumlarga litsenziya (sertifikat)lar olish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlarni zimmlariga olish majburiyati yuklatiladi.

### Shartnomani bekor qilish.

14. Buyurtmachi Pudratchidan quyidagi xollarda shartnomani bekor qilinishini talab etishga xaqli:
- 14.1. Pudratchi qurilishni Buyurtmachiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra bir oydan ortiq kechiktirganda;
- 14.2. Ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko'paygan xolda, pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda.
- 14.3. Pudratchi tomonidan loyixada ko'zda tutilgan shartnomaning sharti buzilganda va oqibatda ish sifatining pasayib ketishiga olib kelganda;
- 14.4. Pudratchining qurilish faoliyati litsenziyasi bekor qilinganda, davlat organlari tomonidan ish yuritishdan maxrum etuvchi amaldagi qonunchilik doirasida, boshqa qonun xujjatlar mavjud bo'lgan takdirda.
- 14.5. Qonun xujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish xuquqiga ega.
- 14.7. Pudratchi quyidagi xollarda shartnoma (kontrakt) bekor qilinishini talab qilishga xaqli:
- 14.8. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra 1 oydan ortiq muddatda qurilish-montaj ishlari bajarilishi to'xtatib qo'yilganda;
- 14.9. Qonun xujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish xuquqiga ega.
- 14.10. Buyurtmachi va Pudratchi bilan birgalikda qabul qilingan qarori bo'yicha shartnoma (kontrakt) bekor kilinganda, tugallanmay qolgan qurilish ob'ekti 10 kun muddatda Buyurtmachiga topshiriladi
- 14.11. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur qoidaga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi, Pudrat shartnomasi (kontrakti) mazkur shartnomaning 14.12 bandiga ko'ra bekor qilinadi.
- 14.12. Shartnoma (kontrakt)ni bekor qilish xaqidagi tomonlarning kelishuvi ushbu shartnoma (kontrakt) tuzish kabi rasmiylashtirilgan xolda va shaklda amalga oshiriladi.
- 14.13. Tomonlar shartnoma (kontrakt)ni bekor qilish xaqidagi ogoxlantirish yuborilgach, ogoxlantirishda ko'rsatilgan kamchiliklar 1(bir) oy muddat ichida ixtiyoriy bartaraf etilmasa mazkur shartnomani bir tomonlama bekor qilishga asos xisoblanadi. Qonunchilikda va shartnoma (kontrakt)da ko'zda tutilmagan xollar bundan mustasno.

### Nizolarni xal etish tartibi.

- 15.1. Shartnoma (kontrakt)ni ijro etmaganligi yoki yetarli darajada bajarmaganligi uchun, javobgarlik agar shartnomada o'zgacha ko'zda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risida»gi qonuniga, xamda O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksiga asosan javobgarlik choralari qo'llaniladi.
- 15.2. Lavozimli shaxs tomonidan shartnoma majburiyatlarini buzganligi uchun javobgarlik chorasi O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xukukiy ba'zasi to'g'risida"gi Qonunning 35-moddasi bilan belgilanadi.
- 15.3. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni koplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar xal etolmasa ular konun xujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

### Alohida shartlar

- 16.1. Mazkur shartnoma imzolanganidan keyin tomonlar o'rtasidagi mazkur shartnomaga daxldor oldingi barcha yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, kelishuvlar o'z kuchini yo'qotadi..
- 16.2. Pudratchi Buyurtmachining yozma ruxsatisiz ob'ektni yoki uning aloxida bir qismini ko'rish uchun loyixa xujjatlarini uchinchi shaxsga sotish yoki o'tkazish xuquqiga ega emas. Bundan subpudratchilar mustasno.
- 16.3. Mazkur shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma ravishda rasmiylashtirilib, tomonlar imzo chekkan bo'lsalar xaqiqiy deb xisoblanadi.
- 16.4. Buyurtmachi va Pudratchi o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan xar qanday axdlashuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi shart.
- 16.5. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar yakunlangandan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u xolda buyurtmachi pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga xaq to'lashni kechiktirishiga xaqlidir.
- 16.6. Mebel' jixozlari Respublika yoki viloyat miqyosida o'tkaziladigan tanlov savdolarida aniqlangan ta'minotchilardan olinishi shart.
- 16.7. Barcha elektr asboblari, uskunalar, jixozlar, kabel' maxsulotlari, nasoslar va boshqa jixozlarning sifat sertifikatlari xamda texnik pasportlari bo'lishi shart.
- 16.8. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha xollar uchun amaldagi qonun xujjatlari normalari qo'llaniladi.
- 17.6. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 3 nusxada tuzildi.

**Shartnoma (kontrakt)ning xuquqiy ekspertizasi.**

17.1. Shartnoma (kontrakt)ning mazmuni uni tuzishga tayyorlash jarayonida yuridik xizmat sub'ektlari yoki jalb etilgan advokatlar tomonidan qonunchilikka muvofiq kelishi tekshirilgan bo'lishi darkor. Ularnig imzosisiz yoki xulosasisiz shartnoma (kontrakt) tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi.

17.2. Shartnoma (kontrakt)ni tuzish, ijro etish, o'zgartirish va bekor qilish, shuningdek keltirilgan zararni qoplash chog'ida tomonlar o'rtasida vujudga keladigan baxslar qonunchilikda belgilangan tartibda iqtisodiy sud tomonidan yoki tomonlarning kelishuviga binoan xakamlar sudi tomonidan ko'rib chiqiladi. Konunchilik palatasi tomonidan 28.11.2013yilda kabul kilingan Senat tomonidan 12.12.2013yilda ma'kullangan Uzbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi xamda O'zR Moliya Vazirligiining 2016 yil 22 noyabrdagi 88-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Uzbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining gazna ijrosi koidalari" nizom (2850-son bilan Adliya Vazirligidan ro'yxatidan o'tkazilgan)ga asosan shartnoma tegishli tartibda g'aznachilik bo'limi ro'yxatidan o'tkazilgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi va "31"dekabr 2022 yilgacha amalda bo'ladi.

**10. TOMONLARNING Yuridik MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI****«PUDRATCHI»**

«Yangi hayot Sifatqurilish» MCHJ  
(mol yetkazib beruvchining nomi)

Manzil: Qarshi Saxari

Tel./faks 99-041-22-01

h/r: 20208000300897632001

Bank: ATIB Infin bank Qashqadaryo filali

MFO: 01135 STIR: 305635606

OKONX: 61110

**«BUYURTMACHI»**

Nishon Obodonlashtirish boshkarmasi  
(byudjetdan mablag' oluvchining nomi)

Manzil: Ya-Nishon shahri A.Temur kucha 2A uy

Tel./faks: +998973145858

sh/h\* 401722860102357065200110001

byudjetdan mablag' oluvchi STIR: 206816754

OKONX 90211 STIR: 206816754


G'aznachilik bo'linmasi nomi Moliya vazirligi  
yagona gazna xisob varagi

G'azna h/v 23402000300100001010

Bankning nomi Markaziy bank Toshkent ShBB


XKKM MFO 00014

g'aznachilik bo'linmasi STIR: 201122919

Rahbar:  U. Axmedov  
(F.I.Sh)

M.O'.



Rahbar:  Sh. X. Tursunov  
(lavozim) (F.I.Sh)



**Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 109090 на приобретение Нишон туманидаги Куксой мфй Зарафшон ва Янгиобод 1,080 км кучаларини жорий таъмирлаш**

Способ проведения электронный

Дата 28.06.2022

Время рассмотрения 28.06.2022 23:15

Конкурсная комиссия Нишон туман хокимлиги Ободонлаштириш бошкармаси, (Далее – Комиссия) в составе:

<b>Председатель комиссии</b>	TURSUNOV SHOHLI XAMROYEVICH	рахбар	Нишон хокимлиги Ободонлаштириш бошкармаси
<b>Секретарь комиссии</b>	O'RINOV ANVAR TURAQULOVICH	Ишчи	Нишон тумани Хокимлиги Ободонлаштириш бошкармаси
<b>Член комиссии</b>	YULDASHOV BAXTYOR SHARIFOVICH	техназор	Нишон тумани хокимлиги Ободонлаштириш бошкармаси
<b>Член комиссии</b>	YANGIBOYEV IBROGIM SHERMAMATOVICH	Хужалик ишлари мудири	Нишон тумани хокимлиги Ободонлаштириш бошкармаси
<b>Член комиссии</b>	AMANOV BOBIR ANVAROVICH	бош мухандис	Нишон тумани хокимлиги Ободонлаштириш бошкармаси
<b>Член комиссии</b>	XAKKULOV ERKIN ARALOVICH	учаска бошлиги	Нишон тумани хокимлиги Ободонлаштириш бошкармаси

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 28.06.2022 года № лота 109090.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.техничко-квалификационной части: 85.00 / Весовой коэф. ценовой части: 15.00)

Мин. балл: 60

Предмет закупки:

<b>Наименование товара (работы, услуги)</b>	<b>Услуга по текущему ремонту автомобильных дорог</b>
Подробное описание	Услуга по текущему ремонту автомобильных дорог (42.11.20.000-00010)
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	88 664 074.00
Стартовая сумма	88 664 074.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Курилиш ташкилоти Шунга ухшаш иш фаолияти тугрисида маълумот (Шартномалар ваХисоб –фактураси.) курсатилши лозим.

Тип: Текстовое значение



Описание: Шунга ухшаш иш фаолияти тугрисида маълумот (Шартномалар ваХисоб –фактураси.)

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
NISHON OBOD YUKSALISH MCHJ	20	88000000	15	Экспертная		
YOMG'IRCHIYEV OYBEK MCHJ	20	bor	15	Экспертная		
UMID SHER UY-JOY QURILISH XK	20	86600000	15	Экспертная		
YANGI HAYOT SIFAT QURIL MCHJ	20	87777433	20	Экспертная		
ЧП FAROVON HOLDING	20	1	15	Экспертная		
ЧП BZASH	20	талаб килинган хужжат такдим этилди	15	Экспертная		
ООО ASBOB SERVIS JIXOZLARI	20	файл илова килинади	15	Экспертная		

Критерий №2 Курилиш объектни жойга урганганлиги ва курилиш ишларни уз вактига бажарилиши тугрисида кафолат хат курсатилши лозим

Тип: Текстовое значение

Описание: Курилиш объектни жойга урганганлиги ва курилиш ишларни уз вактига бажарилиши тугрисида кафолат хат

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
NISHON OBOD YUKSALISH MCHJ	15	88000000	15	Экспертная		
YOMG'IRCHIYEV OYBEK MCHJ	15	bor	15	Экспертная		
UMID SHER UY-JOY QURILISH XK	15	86600000	15	Экспертная		
YANGI HAYOT SIFAT QURIL MCHJ	15	87777433	15	Экспертная		
ЧП FAROVON HOLDING	15	1	15	Экспертная		
ЧП BZASH	15	талаб килинган хужжат илова килинди	15	Экспертная		
ООО ASBOB SERVIS JIXOZLARI	15	файл илова килинади	15	Экспертная		

Критерий №3 Курилиш ташкилотиниг Техника механизимлари ва Ишчи ходимлари тугрисида маълумотнома курсатилши лозим

Тип: Текстовое значение

Описание: Техника механизимлари ва Ишчи ходимлари тугрисида

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
NISHON OBOD YUKSALISH MCHJ	20	88000000	15	Экспертная		
YOMG'IRCHIYEV OYBEK MCHJ	20	bor	15	Экспертная		
UMID SHER UY-JOY QURILISH XK	20	86600000	20	Экспертная		
YANGI HAYOT SIFAT QURIL MCHJ	20	87777433	20	Экспертная		
ЧП FAROVON HOLDING	20	1	15	Экспертная		
ЧП BZASH	20	талаб килинган хужжат илова килиндиталаб килинган хужжат илова килинди	15	Экспертная		
ООО ASBOB SERVIS JIXOZLARI	20	файл илова килинади	15	Экспертная		

Критерий №4 Курилиш ташкилоти рейтинг салохати статистик маълумотномаси. Низоми Ташкилот ИНН. рахбари паспорт ва ИНН

Тип: Текстовое значение

Описание: рейтинг салохати статистик маълумотномаси. Низоми Ташкилот ИНН. рахбари паспорт ва ИНН

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
NISHON OBOD YUKSALISH MCHJ	15	88000000	10	Экспертная		
YOMG'IRCHIYEV OYBEK MCHJ	15	bor	10	Экспертная		
UMID SHER UY-JOY QURILISH XK	15	86600000	10	Экспертная		
YANGI HAYOT SIFAT QURIL MCHJ	15	87777433	15	Экспертная		
ЧП FAROVON HOLDING	15	1	10	Экспертная		
ЧП BZASH	15	талаб килинган хужжат илова килинди	10	Экспертная		
ООО ASBOB SERVIS JIXOZLARI	15	файл олова килинади	10	Экспертная		

Критерий №5 .Курилиш ташкилоти томонидан Банк .Давлат солик инспекцияси ва бошка ташкилотлардан карздорлик йуқлиги тугрисида маълумотнома ва молияви натижалари баланс курсатилши лозим

Тип: Текстовое значение

Описание: Банк .Давлат солик инспекцияси ва бошка ташкилотлардан карздорлик йуқлиги тугрисида

маълумотнома ва молияви натижалари

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
NISHON OBOD YUKSALISH MCHJ	15	88000000	15	Экспертная		
YOMG'IRCHIYEV OYBEK MCHJ	15	bor	15	Экспертная		
UMID SHER UY-JOY QURILISH XK	15	86600000	15	Экспертная		
YANGI HAYOT SIFAT QURIL MCHJ	15	87777433	15	Экспертная		
ЧП FAROVON XOLDING	15	1	15	Экспертная		
ЧП BZASH	15	талаб килинган хужжат илова килинди	15	Экспертная		
ООО ASBOB SERVIS JIXOZLARI	15	файл илова килинади	15	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
ООО ASBOB SERVIS JIXOZLARI	88 664 074.00	82 457 589.00 UZS	82 457 589.00	00.00	82 457 589.00	28.06.2022 18:41:58	15.00
UMID SHER UY-JOY QURILISH XK	88 664 074.00	86 600 000.00 UZS	86 600 000.00	00.00	86 600 000.00	28.06.2022 17:20:41	14.28
YANGI HAYOT SIFAT QURIL MCHJ	88 664 074.00	87 777 433.00 UZS	87 777 433.00	00.00	87 777 433.00	28.06.2022 18:04:32	14.09
ЧП BZASH	88 664 074.00	85 600 000.00 UZS	85 600 000.00	00.00	85 600 000.00	28.06.2022 18:11:22	14.45
NISHON OBOD YUKSALISH MCHJ	88 664 074.00	88 000 000.00 UZS	88 000 000.00	00.00	88 000 000.00	27.06.2022 19:53:06	14.06
ЧП FAROVON XOLDING	88 664 074.00	87 664 074.00 UZS	87 664 074.00	00.00	87 664 074.00	28.06.2022 18:05:01	14.11
YOMG'IRCHIYEV OYBEK MCHJ	88 664 074.00	86 664 074.00 UZS	86 664 074.00	00.00	86 664 074.00	28.06.2022 14:59:10	14.27

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
ООО ASBOB SERVIS JIXOZLARI	70.00005	15	85.00005

UMID SHER UY-JOY QURILISH XK	74.99975	14.28249	89.28224
YANGI HAYOT SIFAT QURIL MЧЖ	85	14.09091	99.09091
ЧП BZASH	70.00005	14.44934	84.44939
NISHON OBOD YUKSALISH MCHJ	70.00005	14.05527	84.05532
ЧП FAROVON XOLDING	70.00005	14.10913	84.10918
YOMG'IRCHIYEV OYBEK MCHJ	70.00005	14.27193	84.27198

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 109090 от 28.06.2022 года на приобретение Нишон туманидаги Куксой мфй Зарафшон ва Янгиобод 1,080 км кучаларини жорий таъмирлаш определила победителем:

YANGI HAYOT SIFAT QURIL MЧЖ  
305635606

и резервный исполнитель: UMID SHER UY-JOY QURILISH XK (307281635)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
<b>Председатель комиссии</b>	TURSUNOV SHOHLI XAMROYEVICH	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	YANGIBOYEV IBROGIM SHERMAMATOVICH	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	AMANOV BOBIR ANVAROVICH	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	XAKKULOV ERKIN ARALOVICH	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	YULDASHOV BAXTYOR SHARIFOVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП



Nishon tuman bo'yicha 2022 yilning I-mavsumida jamaatchilik fikri asosida shakillangan tadbirlarni moliylashtirish bo'yicha  
MANZILLI RO'YXAT

1-ilova

№	G'olib taklif ma'lumotlari			Amalga oshirishning aniqlangan qiymati (ming so'mda)	Xaqiqatda ajratilgan* (ming so'mda)	Moliylashtirilgan manbasi (FJ, qo'shimcha ma'bu, byudjet parametri)	Buyurtmachi tashkilot
	Taklif ID raqami	Qisqacha mazmuni	To'plangan ovozlarning soni				
"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" da shakillangan mablag'					6670000	x	x
1	0640400071	Nuriston posyolkasi kimyogar mahallasida asfalt yonida uzoq yillar davomida yulak yuqligi sababli velosiped haydayotgan shaxsiar asfaltni uzida yurishga majbur bulmoqda,, Xavsizlikdan saqlanishimiz uchun va yashayotgan yosh qatlam yani yoshlar va umuman aholini sog'lomlashtirishni qullab- quvvatlash uchun 1km uzunlikda veloyulak qurish va abgor holatga kelib qolgan ( asosiy yu 38 maktabga borishidagi ) 500 metr kimyogar maxallasi ichki yulni asfaltlash uchun Amaliy yordam berishingizni surab qolamiz,,Bu muammoni bartaraf etishda faollik kursatgan tashkilotchilarga Raxmat aytib qolamiz	1589	800000	800000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
2	0640400086	Umir bunyodkori mfy ichki yo'llarini ta'mirlash	1559	100000	100000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
3	0640400074	Yoshlar diyori MFY 2019 yilda tashkil etilgan bo'lib hozirgi kunga qadar ijara asosida faoliyat yuritib kelmoqda, MFY aholisi MFY ma'muriyatidan uzoq masofada joylashgan va MFY hududidan bino qurish	964	350000	350000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman hokimligi
4	0640400028	Nishon tuman Nuriston MFY 20-maktab ititish tizimi 50% faodalanishga yaroqli Kimyogar MFY 35-38- maktablarda ititish tizimi yaqinda ishdan chiqqan, usgbu maktablarda 4930 nafar o'quvchi o'qiydi o'qivchilar sog'ligi uchun ititish tizimlarini tamirlash zarur	943	700000	700000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman xalq ta'limi bo'limi
5	0640400014	Kuksoy MFY binosini qurish MFY mavjut emas, maktab binosida ijara asosida faoliyat kursatadi	942	350000	350000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman hokimligi
6	0640400266	Nishon tuman istiroxat bog'ini tamirlash va bezash, ko'ngil ochar joylar qurish	876	970000	970000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
7	0640400098	Nishon tumani guliston MFY da joylashgan 9-maktabgacha ta'lim tashkiloti bugungi 240 nafar tarbiyalanuvchilar tarbiyalanib kimoqda, ushbu maktabgacha ta'lim tashkilotining kirish darvozasi, tashqi devorlari, uyin maydonchalari, tom qismi, eshik romlari, oshxona, guruh honalari va eliktr tizimi tamirga muxtoj.	875	200000	200000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman maktabgacha ta'lim tashkiloti
8	0640400076	Qashqadaryo viloyati Nishon tumani xududidagi Nuriston shaxarchasi tibbiyot muassasasi tamir talab, xozirgi keng taraqqiy etgan zamonda Nuriston shaxarchasi axolisixam zamon talablariga mos tamirlangan binolarda tibbiy muolajalar olishni xoxlaydi,	757	200000	200000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman tibbiyot birlashmasi
9	0640400088	Nishon tumanidagi yangi qurilgan davlat xizmatlari binosi ikkinchi qavati bosh turganligi sababli ushbu binoning ikkinchi qavatini zamonaviy axborot kutubxonaga aylantirish	672	300000	300000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman axborot kutubxona markazi
10	0640400069	Nishon tumani Paxtazor MFY ichki yo'llar, simyog'och va kanalizatsiya tarmoqlarini ta'mirlash	624	500000	500000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
11	0640400058	Nishon MFY jonajon ona yurtimiz O'ZBEKISTONning olis xududlar turiga kiruvchi Nishon tumani Nishon OSHP (Oilaviy Shifokorlik Punkiti) ni joriy tamirlash uchun moddiy mablag' ajratilishi kerak,	581	150000	150000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman tibbiyot birlashmasi
12	0640400084	Nishon tumani markaziy ko'chalarini asvalt qilish	526	650000	650000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
13	0640400072	Nishon tumani paxtokor MFY da joylashgan maxalla va oilani qullab quvvatlash bulimining qurilishi tugallanmagan mamuriy binosini ta'mirlash	506	400000	400000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman hokimligi
14	0640400206	"Orzu bo'stoni" MFY ga kirish yo'lida 5 km yo'lni tamirlash uchun giryazni grovur to'kish va tekislash	460	100000	100000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
15	0640400079	ISTIQBOL MFY da yashayotgan fuqarolarning ancha vaqtdan beri hal bo'lmay kelayotgan ichki yo'llari, ya'ni "Ro'zi ota" ko'chasi qismi achinarli holatga kelib qolgan. Ayniqsa yog'ingarchilik paytida bu yullarni so'z bilan ta'riflab bo'lmaydi Men tumanimizdagi barcha insonlarni bu tashabbusni qullab quvvatlashini surab qolaman.	417	100000	100000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
16	0640400216	Nuriston MFY parkini ta'mirlash	392	200000	200000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
17	0640400070	Novbaxor MFY ga suv masalasi	320	100000	100000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
18	0640400063	Balxiyak mfy ga borish yo'llarining holati juda yomon ushbu sohibkordan balxiyak gacha bo'lgan masofaga giryazin grovur to'kib ta'mirlab yo'limizning holati yaxshi...	290	200000	200000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
19	0640400024	Oq oltin MFY binosini joriy ta'mirlash	289	100000	100000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman maxalla va oilani qullab quvvatlash bo'limi
20	0640400213	Kuksoy MFY ichki yo'llarini ta'mirlash	250	100000	100000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
21	0640400222	Qirguloq MFY ichki yo'llarini ta'mirlash	226	100000	100000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
Jami:			14058	6670000	6670000		

Tuman hokimining o'rinbosari:

Tuman hokimining qurilish masalalari bo'yicha o'rinbosari:

Tuman hokimligi moliya bo'limi muddiri:

A.Buriyev

U.Nabiyev

X.Yuldashev